

YANGI O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT DASTURLARINI RIVOJLANTIRISH

Axunov Muxammadamin

Andijon mashinasozlik instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

E-mail: axunov@gmail.com

+998972736877

Shukurov Umidbek

Andijon mashinasozlik instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: ShukurovUmidbek@mail.ru

+998903814360

O'zbekiston respublikasining transport to'g'risidagi qonuniga asosan avtomobil, havo, temir yo'l, suv, elektr transporti, metropoliten va transport infratuzilmasi obyektleri O'zbekiston Respublikasining yagona transport tizimini tashkil etadi[1].

Shu qonuning 7-moddasiga binoan transport sohasidagi davlat siyosatisining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:
transport sohasida davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish amalga oshirish;
transport tizimini mamlakat iqtisodiyotining strategik sektori sifatida rivojlantirish;
transport xizmatlarining raqobatbardoshligini, ulardan foydalana olishni, ularning samaradorligi va sifatini, xavfsizligi va ekologik tozaligini oshirish;
transport sohasi boshqaruvini takomillashtirish va har xil transport turlarining o'zaro bog'liq tarzda ishlashini ta'minlash, shuningdek samarali tarif siyosatini yuritish;
davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
ilg'or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish hamda takomillashtirish;
xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va transport majmuini xalqaro transport tizimiga uyg'unlashtirish.

O'zbekistonda transport sohasini davlat tomonidan tartibga solish ham shu qonun bilan belgilab berilgan.

Transport sohasini davlat tomonidan tartibga solish litsenziyalash, sertifikatlashtirish, ruxsat berish va xabardor qilish tartib va taomillarini qo'llash, texnik jihatdan tartibga solish, ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirish, soliq solish, tarif siyosatini, shu jumladan ijtimoiy ahamiyatga ega tashishlar uchun tarif siyosatini olib borish, transport to'g'risidagi

qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash, kadrlar siyosatini olib borish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa tartibga solish usullarini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari transport tashkilotlarining x o'jalik faoliyatiga aralashishga hamda ushbu tashkilotlarning ishlayotgan xodimlarini boshqa ishlarga jalb etishga haqli emas, bundan tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan, favqulodda holat joriy etilgan hollar mustasno[2].

Har bir davlatning iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmasining rivojlanishi ko'p tomondan ularning transport kommunikatsiyalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Sharq va G'arb davlatlarini bog'lovchi xalqaro karvon yo'llari kesishgan, Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgan Markaziy Osiyo davlatlari jumladan, O'zbekistonning undagi joylashuvi mamlakatning logistik jihatdan rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Bizga ma'lumki, har qanday davlat xalqaro munosabatlar subyekt sifatida shaxs, jamiyat va davlatning muhim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mintaqaviy va xalqaro maydonda o'z faoliyatini olib boradi.

Bugungi kunda mintaqa davlatlarining dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasliklari natijasida eksport-import operatsiyalarida qo'shimcha transport xarajatlari yuzaga kelmoqda. Mazkur xarajatlarni qisqartirish maqsadida mintaqa davlatlari o'zlarining transport strategiyalarini qabul qilgan holda, jahon bozorlariga chiqish uchun qulay va muqobil hisoblangan transport koridorlarini shakllantirmoqda.

Hozirgi vaqtda xalqaro tashishlarda yuk va yo'lovchilarning tranzit tashishlarini logistika yondashuvi asosida rivojlantirishning jahon amaliyoti turli mamlakatlar transport-logistika tizimlarining magistral elementlari sifatida transport yo'laklarining roli yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Transport koridorlari bilan aloqa tranzit tashishning ikkita muhim atributlaridan biridir. Bunda transport yo'lagi - bu alohida mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida yuk va yo'lovchilar harakatini ta'minlovchi turli transport turlarining majmuidir. Shu bilan birga, koridor geografik nuqtalarni bog'laydigan chiziq emas, balki turli xil transport turlarining transport yo'nalishlari o'tadigan ma'lum bir yo'nalishdir. Xalqaro tranzit bo'yicha tadqiqotlarda ko'pincha xalqaro transport koridori atamasi bir nechta davlatlar hududidan o'tuvchi, xalqaro darajada yuqori ahamiyatga ega yo'laklarga nisbatan ishlatiladi. Umuman aytganda transport koridorlari alohida geografik hududlar o'rtasida muhim xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlaydigan, ushbu yo'nalishda harakatlanadigan transportning barcha transport vositalari shuningdek,

ushbu transportlarni amalga oshirish uchun texnologik, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni o'z ichiga olgan milliy yoki xalqaro transport tizimining bir qismidir.

Hozirgi kundagi tashabbus va transport yo'laklarini qurish bo'yicha takliflar trillionlab dollar mablag' talab qilishi mumkin, bu miqdor esa yaqin kelajakdagi davlat moliyasining imkoniyatlaridan anchagina yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Bunday tashabbuslar odatda mintaqaviy savdoda transport xarajatlarini kamaytirish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Ammo bu tashabbuslar yetkazib berish vaqtini va transport vositalari xarajatlarini qisqartirish bilan birga firmalar va transport koridorlari yaratishi mumkin bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqadigan uy xo'jaliklariga sof foyda keltiradi. Lekin bularni amalga oshirish uchun milliy hukumatlar, xususiy sektor, global rivojlanish hamjamiyati loyihalarni baholashning to'g'ri metodologiyasi va yirik transport loyihalari uchun investitsiya takliflarini qo'llab-quvvatlash borasida aniq iqtisodiy fikrlarga ega bo'lishlari kerak. Bunday metodologiya bo'lmasa, ushbu investitsiyalar muvofiqlashtirilmagan harakatlar xavfini tug'diradi, natijada imkoniyatlar boy beriladi: masalan, ta'lim va sog'liqni saqlashni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan cheklangan davlat resurslarini isrof qilish va hukumatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklar. Siyosatchilarning transport yo'laklarini baholash va ustuvorligini aniqlashga qiziqishi ortishi bilan bir qatorda yirik transport infratuzilmasi loyihalarining iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhitga ta'sirini empirik baholashga akademik qiziqish ham ortib bormoqda. Bu investitsiyalar rivojlanishning turli natijalari o'rtasida ham, iqtisodiy ishtirokchilarning turli guruhlari o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial kelishuvlarni tushunishni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Biz iqtisodiy farovonlik (daromad, ish haqi va iste'mol kabi farovonlikning pul ko'rsatkichlari) kabi rivojlanish natijalariga ta'sirini o'z ichiga olgan yirik transport loyihalarining kengroq iqtisodiy ta'siridan, foydasidan manfaatdormiz. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimidagi faoliyatining ilk kunlaridanoq Markaziy Osiyoni yagona mintaqa sifatida rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligini e'tiborga olgan holda, faol mintaqaviy siyosat yuritish, Markaziy Osiyoda qulay siyosiy muhit yaratish, mintaqadagi mamlakatlar bilan barcha yo'nalishlarda, jumladan, O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor tarmoqlaridan bo'lgan transport sohasi bo'yicha konstruktiv va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish kabi vazifalarni belgilab bergan edi. Mamlakatimizda transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish va tranzit yuk tashish hajmini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Markaziy Osiyoda qo'shimcha yuk tashish oqimlarini jalb etish imkonini beradigan yangi transport va tranzit yo'laklarini shakllantirish, transport va logistika sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy tajribani o'rganib, xalqaro logistika markazlari tarmog'ini yaratish, mintaqa transport-logistika salohiyatini

rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlarning portlaridan samarali foydalanish uslublarini shakllantirish, Markaziy Osiyoda Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini birlashtiruvchi muhim tranzit yo'l bo'lib xizmat qiladigan yagona integratsiyalashgan xabni yaratish masalalari mintaqamiz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqsad - mintqa tranzit salohiyatini birgalikda rivojlantirish, xalqaro transport yo'laklaridan foydalanishni kengaytirishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbarining asosiy tashabbuslaridan biri – Markaziy Osiyo bo'yicha BMT rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi, joriy yil iyun oyida BMT Bosh Assambleyasi “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlik” rezolyutsiyasini qabul qildi. Rezolyutsiyada transport infratuzilmasi va tranzit yo'laklarini rivojlantirish, yangi avtomobil va temir yo'llar, aviaqatnovlarni ochish orqali barcha transport turlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yirik xalqaro bozorlarni o'zaro birlashtiruvchi eng qisqa yo'nalishlar mintaqamiz orqali o'tadi. Hududimizning transport-tranzit salohiyati uning tarixan Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasida ko'priklar vazifasini o'tagan Buyuk ipak yo'lining markazidagi geostrategik joylashuvi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 09.08.2021 йилдаги ЎРҚ-706-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралдаги ПҚ-5647-сонли «Транспорт соҳасида давлат бошқаруви тизimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tўғрисида»ги қарори.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrda "2018-2022 –yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-sonli qarori .
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son farmoni .
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 6-martdagi PQ-4230-son qarori.